

**Хулоса ва таклифлар.** Рентабеллик кўрсаткичлари даражасини таҳлил қилиш корхоналар молиявий ҳолати барқарорлиги таҳлилининг асосий босқичларидан бири бўлиб, у ҳамма вақт корхона раҳбари, аудиторлар ва таҳлилчилар эътибор марказида бўлиши лозим. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, акциядорлик компаниясида рентабеллик кўрсаткичлари даражасини оширишнинг ички имкониятлари мавжуд бўлиб, биринчи навбатда, кўрсаткичларнинг таркибий тузилишини яхшилаш керак. Таҳлил объекти бошқарув маъмурияти рентабеллик кўрсаткичлари даражасини ошириш бўйича керакли тадбирларни амалга ошириши лозим ҳисобланади. Зеро, бизнесдаги ҳолат ва унинг келгусидаги ривожини прогнозлаш юзасидан МҲХС асосида қиёсий таҳлил ҳам амалга оширилиши керак. Шу билан бирга, бизнесини реструктуризация қилишда, молиявий соғломлаштириш, молиявий модель тузишда ҳам рентабеллик кўрсаткичлари таҳлили натижалари муҳим ҳисобланади.

Корхоналарда рентабеллик кўрсаткичлари даражасини ошириш бўйича қуйидаги амалий тавсияларни бериш мумкин: ишлаб чиқаришни модернизация, реконструкция, диверсификация қилиш ва инновация технологияларини жалб қилиш; бир сўмлик маҳсулот учун қилинадиган жами харажатларни қисқартириш; ишлаб чиқариш ресурсларидан самарали фойдаланиш натижасига кўра маҳсулот фонд сиғими, материал сиғимини пасайтириш. Акциядорлик компанияси бошқарув маъмурияти омилли таҳлил натижасида аниқланган ички имкониятлардан тўлиқ фойдаланиши, уларни амалиётга сафарбар қилиши лозим. Берилган рентабеллик кўрсаткичларини таҳлил қилиш усуллари амалиётда жорий қилинса, корхоналарнинг рақобатбардошлиги, рентабеллиги ва молиявий ҳолати барқарорлигини таъминлаш, молиявий ва иқтисодий салоҳиятини ошириш имкони бўлади.

#### **Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4611-сонли қарори. 2020 йил 24 февраль.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат иштирокидаги корхоналарни молиявий соғломлаштириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1013-сонли қарори. 2018 йил 14 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат иштирокидаги корхоналар ижро этувчи органи фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 775-сонли қарори. 2020 йил 9 декабрь.
4. Aryantini S & Jumono S. (2021). Profitability and value of firm: An evidence from manufacturing industry in Indonesia. *Accounting*, 7(4), 735-746. <http://leeds-faculty.colorado.edu/jere1232/Harrigan%20and%20Wing%20Corporate%20Renewal%20SI.pdf>.
5. Вахрушина М.А. Анализ финансовой отчетности. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2022.
6. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Иқтисодий таҳлил. Ўқув қўлланма. – Т., 2017.
7. Тожибоева Ш.А. Молиявий таҳлил-2. Дарслик. – Т.: Инновацион ривожланиш, 2021.
8. Хасанов Б.А. ва бошқалар. Молиявий таҳлил. Ўқув қўлланма. – Т.: Lesson-Press, 2022.
9. Шоалимов А.Х., Илхамов Ш.И., Тожибоева Ш.А. Иқтисодий таҳлил ва аудит. Дарслик. – Т.: Сано-стандарт, 2017.
10. Эшов М.П. Саноат корхоналари рентабеллиги кўрсаткичлари асосида корхона қийматини бошқариш. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. 1-сон, январь-февраль, 2019 йил.
11. МҲХС бўйича молиявий ҳисобот (F7, ACCA) курси ўқув фани материаллари, 2022.



#### **BUXGALTERIYA TIZIMIDA NOMODDIY AKTIVLARNI ADOLATLI BAHOLASH**

**Qosimova Sayyora Karimjon qizi -**  
Toshkent moliya instituti, Baholash ishi va investitsiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss5/a17](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a17)

**Аннотатсия.** Мақоллада номоддий активларни баҳолашнинг долзарб муаммолари муҳокама қилинади. Номоддий активларни баҳолашда umumiy yondashuvdan foydalanishning mumkin emasligi asoslab berilgan, shuning uchun nomoddiy aktivlarni adolatli baholash xususiyatlari atroflicha tahlil qilinib, xorijiy tajriba o'rganilgan. Olingan natijalarga asoslanib, muallifning nomoddiy aktivlarni adolatli baholash ketma-ketligi to'g'risidagi qarashlari taklif etiladi.

**Калит со'злар:** номоддий активлар, баҳолаш, қиймат, алгоритм, бухгалтерия ҳисоби.

**Касимова Сайёра Каримжон кизи -**

*Ташкентский финансовый институт, старший преподаватель  
кафедры «Оценочное дело и инвестиции»*

**Аннотация.** В статье рассмотрены актуальные проблемы оценки нематериальных активов. Обоснована невозможность использования общего подхода к оценке НМА, в связи с чем, детально проанализированы особенности проведения справедливой оценки НМА и изучен зарубежный опыт. Руководствуясь полученными результатами, предложено авторское видение последовательности проведения справедливой оценки НМА.

**Ключевые слова:** НМА, оценка, стоимость, алгоритм, учет.

## FAIR VALUATION OF INTANGIBLE ASSETS IN THE ACCOUNTING SYSTEM

**Kasimova Sayyora Karimjon kizi -**

*Tashkent Financial Institute, Senior Lecturer of  
the Department "Appraisal and Investments"*

**Annotation.** The article deals with topical issues valuation of intangible assets. It substantiates the inability to use a common approach to the evaluation of IA, and therefore, a detailed analysis of the peculiarities of the fair valuation of IA and studied foreign experience. Guided by the results there is obtained suggested the author's vision of a fair assessment of the sequence IA.

**Keywords:** intangible assets, estimate the cost, the algorithm records.

**Kirish.** Jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining hozirgi bosqichi industrial jamiyatidan axborot jamiyatiga o'tish sifatida belgilanadi, uning xarakterli xususiyati iqtisodiy rivojlanishning innovatsion paradigmasini shakllantirishdir. Ushbu o'zgarishlar bilim va fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishini taqozo etadi, buning natijasida ishlab chiqarish omili sifatida nomoddiy aktivlar asta-sekin moddiy mehnat vositalariga nisbatan muhimroq bo'lib bormoqda [1].

Korxonalarining xo'jalik faoliyati va buxgalteriya hisobi hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, rahbariyat bozor iqtisodiyoti sharoitida intellektual mulk obyektlarining raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish jarayoniga qo'shadigan hissasi-ning ahamiyatini to'liq tushunmaydi. Ushbu holatlar nomoddiy aktivlarni baholashga, ayniqsa, ularning adolatli qiymatiga va korxonaning buxgalteriya hisobi tizimida to'g'ri ko'rsatilishiga qiziqishni kuchaytiradi.

Nomoddiy aktivlarning qiymatini ishonchli aniqlash katta ahamiyatga ega, ammo baholash usullarini tanlash, nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatini tashkil etuvchi xarajatlarni aniqlash va bozorda mutlaqo bir xil aktivlarning yo'qligi bilan bog'liq bir qator muammoli masalalarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ushbu holatlar korxonaning buxgalteriya hisobi tizimida nomoddiy aktivlarni adolatli baholash usullarini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Nomoddiy aktivlarni baholash va hisobga olish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchilar, jumladan S.Golov, F.Efimov, V.Sopko, N.Generalov, A.Milyukov va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Nomoddiy aktivlarni baholashning nazariy tamoyillari va joriy amaliyotini o'rganish bir qator hal etilmagan muammolarni aniqlash imkonini berdi.

Eng avvalo, qiymatga yo'naltirilgan konsepsiyani shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadigan qiymat tushunchasini aniqlashtirish lozim. Qiymat kategoriya sifatida jahonning yetakchi iqtisodchilari: U.Petit, A.Smit, D.Rikardo, T.Maltus, J.S.Mill, K.Marks, A.Marshall va boshqalarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ularning barchasi bu murakkab va qarama-qarshi tushunchaning mohiyatini tushunishga harakat qildilar. 17-19-asrlarda "qiymat" tushunchasini aniqlashning asosiy nazariyalari va yondashuvlari ishlab chiqildi.

Birinchi yondashuv K.Marksning qiymatning mehnat nazariyasi doirasida shakllangan. U qiymatni "mahsulot ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zarur mehnat xarajatlari yig'indisi" deb ta'riflaydi [2]. Marks qiymatning kelib chiqishi ishlab chiqarish va savdo (yoki ayirboshlash) jarayonlarida yotadi, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari ushbu qiymat jamiyat tomonidan to'liq tan olinishi uchun muayyan mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari ijtimoiy zarur deb hisoblangan xarajatlardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari - marjinalizm nazariyasi asoschilari L.Valras, G.Gossen, V.S.Jevons, K.Menger va boshqalar fikricha, "mahsulotning qiymati uning chegaraviy foydaliligi va noyobligi bilan belgilanadi" [3]. Cheklangan foydalilikning kamayishi qonuniga ko'ra, iste'mol qilinadigan tovar miqdori ortib borishi bilan tovarning har bir qo'shimcha birligidan olinadigan marjinal yoki qo'shimcha foydalilik kamayadi, ya'ni uning qiymati ham kamayadi. Ular, shuningdek, har bir xaridor to'lashga tayyor bo'lgan subyektiv qiymatni va bozorda shakllanadigan obyektiv qiymatni ajratib ko'rsatishdi.

Neoklassiklar A. Marshall va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan uchinchi yondashuv “qiymatni muvozanat, chegaraviy foydalilik va marjinal xarajatlar muvozanati” deb belgilaydi. Ushbu yondashuv, nihoyat, talab va taklif muvozanati ta’sirida aniqlanadigan qiymatni obyektiv deb belgiladi. Mualliflarning ta’kidlashicha, iste’molchi to’lashga tayyor bo’lgan narx mahsulotning marjinal foydaliligiga qarab belgilanadi. Bu narx taklifga ta’sir ko’rsatadigan talabni belgilaydi va bu, o’z navbatida, mumkin bo’lgan maksimal ishlab chiqarish xarajatlari va narxini belgilaydi.

20-asrda korporativ moliya nazariyasi katta rivojlanishga erishdi, ular bilan qiymatni aniqlash va baholash sohasidagi nazariyalar bog’liq edi.

Ushbu nazariya investitsiyalarni kelajakda ular ishlab chiqarishi mumkin bo’lgan pul oqimlari nuqtayi nazaridan ko’rib chiqadi. Bu kelajakdagi barcha pul oqimlarining diskontlangan qiymati investitsiyaning ichki qiymatini belgilaydi. Ushbu bayonotga asoslanib, korporativ moliya nazariyasi tarafdorlari A. Damodaran, R. Braley, S. Myers va boshqalar biznes qiymatini “kompaniyaning barcha aktivlari (investitsiya qilingan kapital) tomonidan yaratilgan foydalilik qiymati (kelajakda kutilayotgan sof oqimlar ko’rinishida)” deb tushunishadi.

Brend qiymatini moliyaviy baholash esa moliyaviy hisob balansida keltirilgan qonun-qoidalar asosida olib borilgan. Balansda keltirilgan son moddiy aktiv sifatida brendga ega bo’lsa ham, lekin iste’molchilar uning bahosi yuqori yoki aksi uning pastligini inobatga olish kerakligi to’g’risida olimlardan Barvays (1999-y.) va Oldroyd (1994-y., 1998-y.) o’z fikrlarini olg’a suradilar va gudvill va nomoddiy aktiv orasidagi farqni Tollington (1989-y.) muhokama qiladi. 1993-yilda Simon va Sullivan brend qiymatini baholashda bozorning atributlari jihatidan ko’rib chiqadi. Tijorat bo’yicha bahsni Perrier 1997-yilda, “Interbrand” kompaniyasi, “Financial World”, “Brand Finance Limited” jurnallari dunyo bo’yicha brend kompaniyalarning kapitalini baholab, o’z reytinglari natijasini har yili chop etib chiqaradi va bunday reyting biznes muhitda brendlarni baholash muhimligini ta’kidlaydi [4].

Xarajatlarga asoslangan yondashuvda kompaniya brend darajasiga erishishida sarflangan barcha xarajatlar yig’indisini tashkil etadi. Bunday yondashuvda Aaker (1991-y.) va Keller (1998-y.) brendning bozor qiymatiga ko’ra umuman teng kelmasligini fikrlaydilar. Ya’ni kapitallashgan brend xarajatlari yoki bozor narxidan ancha past yoki noto’g’ri boshqarilgan va ijro etilgan brend strategiyalaridan yig’ilgan kapitallashgan brend narxi bozor narxidan ancha pastligi ham ifoda etilishi bilan isbotlab beriladi [5].

Ochiq bozorga asoslangan yondashuvda brend bozorga qancha narxga sotib olinishiga tayyor ekanligi ko’rsatib berilishi kerak. Reyli va Shveyz fik-

riga ko’ra, bunda xaridorning eng yuqori beradigan narxi va sotuvchining eng yuqori beradigan narxi bilan mos tushishi kerak (1999-y.). Ammo Barvayzni (1999-y.) bunday oldi-sotdi bajarilishi uchun brend kapitali narxini chiqarishda unga aynan mos bo’lgan muqobil mavjud bo’lishi va ular ham bozorda o’z qiymatlarini belgilangan holda taklif etishi kerakligini ta’kidlaydi [6].

Kravis va Gelding iqtisodiy yoki daromad olish maqsadiga asoslangan yondashuvda brenddan kelajakda daromad olish manbaya sifatida qaraladi, ammo buning uchun hozirgi qiymatni aniqlash uslubini zarurligini [7] (1999-y.) ta’kidladilar.

Shunday qilib, yuqoridagilarni hisobga olgan holda, maqolaning maqsadi nomoddiy aktivlarni adolatli baholash xususiyatlarini o’rganish va ushbu metodologiyani rivojlantirishning istiqbolli yo’llarini aniqlashdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, korrelyatsiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma’lumki, nomoddiy aktivlarning balansda aks ettirilgan qiymati ularning haqiqiy qiymatiga mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun ehtiyotkorlik tamoyiliga muvofiq, buxgalteriya hisobi majburiyatlari va xarajatlarini past, korxonaning aktivlari va daromadlarini yuqori baholashga yo’l qo’ymaydigan baholash usullaridan foydalanish kerak [8]. Bundan kelib chiqqan holda, agar nomoddiy aktivlar hisobga olinadigan qiymati ularning haqiqiy qiymatidan farq qilsa, bunday aktivlarning qiymatini ularning adolatli qiymatiga moslashtirish kerak.

Xalqaro va milliy standartlarda belgilangan adolatli qiymatga yondashuvlarni umumlashtirib, biz quyidagi xususiyatlarni ajratib ko’rsatishimiz mumkin (1-jadval).

Ushbu xususiyatlar barcha nomoddiy aktivlarni baholashda umumiy yondashuvdan foydalanishni imkonsiz qiladi, chunki:

- ✚ nomoddiy aktivlarning alohida turlari o’rtasida sezilarli farqlar mavjudligi;
- ✚ nomoddiy aktivlarning har xil turlari bo’yicha bir xil miqdordagi ma’lumotlar mavjud emas;
- ✚ nomoddiy aktivlarning ayrim turlari vaqt o’tishi bilan o’z qiymatini o’zgartirishga qodir, ya’ni ularning qiymati ularni yaratish uchun sarflangan xarajatlarga bog’liq emas.

Korxonaning barcha nomoddiy aktivlarini baholashga umumiy yondashuvni qo’llashning mumkin emasligi nomoddiy aktivlarning buxgalteriya obyekti sifatida mohiyatini hamda buxgalteriya hisobi sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning mavjud ishlanmalarini hisobga oladigan tabaqalashtirilgan usulni ishlab chiqish zarurligini keltirib chiqaradi. Jahon amaliyotida bu usul adolatli baholashdir.

Adolatli qiymat xususiyatlari

Xususiyat	Tavsif
Tomonlarning manfaatlari	Xaridor aktivni o'z xohishi bilan sotib olishni xohlaydi va bozor narxidan ortiq to'lamaydi. Sotuvchi ham majburlash ostida harakat qilmaydi va bozor sharoitida mumkin bo'lgan optimal narxga erishishga harakat qiladi.
Tomonlarning mustaqilligi	Tomonlar teng huquqlarga ega va bir-biri bilan bozordan tashqari narxga olib keladigan hech qanday aloqaga ega emas.
Tomonlarning xabardorligi	Tomonlar obyektning xususiyatlari va foydalanish imkoniyatlari to'g'risida baholash uchun barcha zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.
Joriy baholash sanasi	Tranzaksiya o'tmishdagi baholash asosida emas, balki joriy baholash asosida amalga oshirilishi kerak.

Fikrimizga ko'ra, ma'lum bir korxonaga uchun nomoddiy aktivlarni adolatli baholash metodologiyasini shakllantirish uchun bosqichni o'z ichiga oladi.

**Birinchi bosqich.** Metodologiyaning asosini tashkil etuvchi tamoyillarni aniqlash.

1. Metodologiya juda murakkab bo'lmashi kerak, chunki nomoddiy aktivlarni baholash uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar boshqa turdagi aktivlarni baholash holatlariga qaraganda ancha noaniqroqdir.

2. Metodika kiruvchi ma'lumotlarning kamchiliklarini qoplash uchun yetarlicha haqiqiy bo'lishi kerak.

3. Nomoddiy aktivlar xususiyatiga ko'ra, moddiy aktivlarni baholashdan farqli o'laroq, tahlil jarayonida anchagina ko'proq taxminlar qo'yishga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, yakuniy baho, ko'proq darajada, taxminiy, ya'ni intervalli bo'ladi.

4. Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati, odatda, cheksiz va uzoqdir, bu esa ularni baholashda bevosita kapitallashtirish usulidan foydalanish imkonini beradi va zarur qiladi.

5. Agar nomoddiy aktivlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni baholashda daromadlilik yondashuvidan foydalansak, u holda kelajakdagi sof daromad ko'rsatkichi sifatida pul oqimlaridan foydalanish shart emas. Ushbu hisob-kitoblar uchun siz kelajakdagi daromadning prognozli qiymatlaridan ham foydalanishingiz mumkin, garchi ular qonu-

niy ravishda boshqarilishi mumkin bo'lgan korxonaning buxgalteriya tizimiga bog'liq bo'lsa ham.


6. Nomoddiy aktivlarni baholashda noaniqlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, baholash obyektlarni tijoratlashtirish natijasida olingan sof daromadning joriy qiymatini hisoblash uchun foydalaniladigan diskont stavkasining eng to'g'ri qiymatini belgilashga harakat qilish kerak.

**Ikkinchi bosqich.** Nomoddiy aktivlarni adolatli baholash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish. Shunday qilib, 13-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standartiga muvofiq, nomoddiy aktivlarni adolatli qiymatda baholash uchun 4 bosqichni ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda baholash sanasi aniqlanadi va foydalanishga topshirilgan sanani aks ettiruvchi nomoddiy aktivlar ro'yxati shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqich nomoddiy aktivlarni baholash sabablarini asoslashni o'z ichiga oladi. 13-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standarti nomoddiy aktivlardan eng yaxshi va eng samarali foydalanish konsepsiyasini taklif qiladi.

Nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini aniqlashning uchinchi bosqichida bozor tahlili o'tkaziladi va o'xshash aktivlarning bozor qiymati bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi. Korxonaga ma'lum bir bozor bo'yicha ma'lumotni iyerarxiyaga muvofiq nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini baholashda foydalanish uchun to'playdi (1-rasm).




1-rasm. Xalqaro moliyaviy hisobot standartiga muvofiq nomoddiy aktivlarning adolatli narxini aniqlash iyerarxiyasi



Nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini baholashning to'rtinchi bosqichida uni aniqlash uchun yondashuvlar tanlanadi. Bundan tashqari 13-sonli Xalqaro moliyaviy hisobot standarti uchta yo'lni taklif qiladi: bozor, daromad va xarajat, ular orasidan tadbirkorlik subyekti qaysi birini qo'llash yaxshiroq ekanligini o'zi tanlashi kerak. Shuningdek, u mustaqil ravishda bir yoki bir nechta yondashuvdan foydalanishni ham tanlaydi.

Amerika Buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan standartlari (Generally Accepted Accounting Principles, GAAP) nomoddiy aktivlarni adolatli baholashda rioya qilinishi kerak bo'lgan quyidagi iyerarxiyani taklif qiladi (biznesni birlashtirish natijasida aktivlar olinadigan holatlar bundan mustasno).



2-rasm. Nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash bosqichlari

**1-daraja.** Agar korxonada balansidagilari bilan bir xil bo'lgan nomoddiy aktivlar sotiladigan bozorga kirish imkoniga ega bo'lsa va bunday bozorda ushbu aktivlarning narxi ma'lum bo'lsa, u holda ular korxonada aktivlari adolatli qiymatini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**2-daraja.** Agar korxonada balansidagiga o'xshash nomoddiy aktivlarning narxlari ma'lum bo'lsa, unda zarur tuzatishlar kiritilgan holda ularni baholashda qiyosiy yondashuv qo'llaniladi.

**3-daraja.** Agar 2 va 3-darajali shartlar bajarilmasa, har bir aniq holatda baholash obyektiga oid eng yaxshi ma'lumotlarga asoslanib, nomoddiy aktivlarni baholashning bir yoki bir nechta yondashuvlaridan foydalanish kerak.

**Uchinchi bosqich.** Korxonada uchun nomoddiy aktivlarni adolatli baholash bo'yicha o'z metodologiyasining xususiyatlarini aniqlash. 2-rasmda nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini baholash uchun taklif qilingan ketma-ketlik ko'rsatilgan.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

✦ Bugungi kunda texnologik innovatsiyalar, axborot texnologiyalari va shu kabilar bilan belgilanadigan yangi bozor haqiqatlari bilan bog'liq holda nomoddiy aktivlarni aniqlash, baholash va hisobga olish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

✦ Tadqiqot natijalari nomoddiy aktivlarni baholash nostandart va murakkab ish ekanligini aniqlashga imkon berdi, buning natijasida baholovchilar o'z baholashlarining sezgirligiga ta'sir qiluvchi eng muhim parametrlar haqida taxminlar qilishlari kerak. Nomoddiy aktivlar qiymatini aniqlashning eng keng tarqalgan usullaridan biri adolatli baholashdan foydalanishdir.

✦ Nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash jarayoni korxonalar uchun biroz murakkablikni keltirib chiqaradi, shuning uchun ular tegishli tartib-qoidalarga rioya qilishlari kerak. Adolatli qiymatdan foydalanish munozarali masala, chunki uning afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Shuning uchun korxonalar baholash xarajatlari, o'lchov noaniqligi darajasi, ishonchlilik, hisobot berishdagi

nomuvofiqliklarga yo'l qo'ymaslik istagi va shu kabi omillarni hisobga olgan holda o'z aktivlarini baholash usullarini tanlashi kerak. Maqolada o'tkazilgan jahon amaliyotini tahlil qilish bizga nomoddiy aktivlarning adolatli qiymatini aniqlashning algoritmini shakllantirishga imkon berdi.

✦ Fikrimizga ko'ra, keyingi ilmiy tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishi, korxonalar tomonidan kelib tushish yo'lidan qat'i nazar, har bir turdagi nomoddiy aktivlarni adolatli qiymat bo'yicha tabaqalashtirilgan baholash tartibini aniq tartibga soluvchi tadqiqotlar o'tkazishdir, bu esa o'sish sur'atlarini oshiradi, buxgalteriya hisobotining dolzarbligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar boshqaruvi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Бурлакова О.А., Максимовская Н.Г. Управление нематериальными активами: проблемы и пути их решения. // Экономика и социум. 2015. № 1-2(14). -С. 580-584.
2. Ширяева Н.В., Файзов Д.Д. Нематериальные активы предприятия. // Экономика и социум. 2015. № 1-4(14). С. 1342-1344.
3. Серeda М.М. Значимость оценки стоимости нематериальных активов для развития организации. // Новые горизонты Материалы Международной конференции-конкурса. 2015. С. 83-86.
4. Park C.S. and Srinivasan V. (1994) "A survey-based method for measuring and understanding brand equity and its extendibility", *Journal of Marketing Research*, Vol. 31, May, pp. 271-88.
5. Kamakura W.A. and Russell G.J. (1991) *Measuring Consumer Perceptions of Brand Quality with Scanner Data: Implications for Brand Equity*, Report. No. 91-122, Marketing Science Institute, Cambridge, MA.
6. Aaker D.A. (1996) *Building Strong Brands*, The Free Press, New York, NY.
7. Motameni R. and Shahorkhi M. (1998) "Brand Equity Valuation: A Global Perspective", *Journal of Product and Brand Management*, 7 (4), 275-290.
8. Милуков А.В., Голощапова Л.В. Проблема перехода на МСФО в аспекте учета и оценки нематериальных активов организации. // Научная дискуссия: вопросы экономики и управления. 2015. № 11(43). С. 201-205.



**ЭКСПОРТ-ИМПОРТ КОРХОНАЛАРИ АУДИТИДА ТАХЛИЛИЙ АМАЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Хужамурадова Сурайё Ибрагимовна -**  
Тошкент давлат аграр университети,  
докторанти

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss5/a18](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a18)

**Аннотация.** Ушбу мақолада аудитда таҳлилий амалларни қўллашнинг аҳамияти баён қилинган. Таҳлилий амаллар тушунчаси бўйича хорижлик ва республикамиз иқтисодчи олимларининг ёндашувлари ўрганилган. Аудитда таҳлилий амалларни қўллашнинг босқичлари, даврийлиги ва мақсади шакллантирилган. Аудитда таҳлилий амалларни қўллаш босқичлари ва уларда қўриб чиқиладиган масалалар тавсия қилинган.

**Калит сўзлар:** экспорт-импорт корхоналари, аудит, аудиторлик текшируви, таҳлилий амаллар, таққослаш, таҳлил.

**ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АНАЛИТИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЙ В АУДИТЕ ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**Хужамурадова Сурайё Ибрагимовна -**  
Докторант Ташкентского государственного  
аграрного университета

**Аннотация.** В данной статье описывается важность применения аналитических процедур в аудите. Изучены подходы зарубежных и отечественных экономистов к понятию аналитических процедур. Сформированы этапы, периодичность и цель применения аналитических процедур при проведении аудита. Рекомендованы этапы применения аналитических процедур в аудите и вопросы, подлежащие рассмотрению в них.

**Ключевые слова:** экспортно-импортные предприятия, аудит, проверка, аналитические процедуры, сравнение, анализ.